Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/19

Zarifjon GULOMOV[a]

[a] *Research Fellow*
Imam Maturidi International Scientific Research Center
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: muslimjon3396@gmail.com

«KITOB AT-TAVHID» TANQIDIY NASHRLARIDA MATNIY TAFOVUTLAR VA TAHRIR TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Maqolada Abu Mansur Moturidiyning «Kitob at-tavhid» asarining uch mustaqil ilmiy-tanqidiy nashri – Fathulloh Fathulloh Xulayf (Bayrut, 1970), Bekir Topaloğlu va Muhammad Aruçi (Anqara, 2003) hamda Ahmad Sa'd Damanhuriy (Ammon, 2023) tahqiqlari qiyosiy tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Damanhuriy nashrining metodologiyasi, avvalgi tahqiqlarga bildirgan e'tirozlari va Kembrij universiteti kutubxonasidagi 3651 raqamli yagona qo'lyozmani o'qishga doir yechimlariga qaratiladi. Matniy farqlar to'rt guruhda o'rganiladi: kotib o'chirgan birliklarning matnga olinishi; o'qilishi qiyin so'zlar o'rnida bo'shliq qoldirish yoki konyektura qo'llash; tas'hih va boshqa nusxa variantlarini farqlash; hoshiya sharhlarini keltirish va o'qish. Shuningdek, Damanhuriy tahqiqining I bobiga oid 106 bandli qiyosiy jadval asosida tuzilgan miqdoriy tasnif va uning cheklovlari ko'rib chiqiladi. Tahlil uch nashrdan o'zaro qiyoslab foydalanish zarurligini ko'rsatadi: keyingi tahqiq avvalgi nashrlarning barcha o'qilishlarini bekor qilmaydi. Yakunda o'zbek moturidiyshunosligi uchun manbalarga havola berish, faksimile nashri va nashrlararo muvofiqlik jadvalini tuzishga oid tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Imom Moturidiy, Kitob at-tavhid, Kembrij universiteti, tanqidiy nashr, tahqiq, matnshunoslik, kodikologiya, kasht, konyektura, nusxa varianti.*

TEXTUAL VARIANTS AND EDITORIAL PRINCIPLES IN THE CRITICAL EDITIONS OF KITAB AL-TAWHID

Abstract. *This article provides a comparative analysis of three independent scholarly critical editions of Abu Mansur al-Maturidi's (d. 333/944) Kitab al-Tawhid: the editions prepared by Fathallah Kholeif (Beirut, 1970), Bekir Topaloğlu and Muhammad Aruçi (Ankara, 2003), and Ahmad Sa'd al-Damanhuri (Amman, 1445/2023). Particular attention is devoted to al-Damanhuri's editorial methodology, his criticisms of the earlier editions, and his proposed readings of the unique manuscript preserved in Kembrij universiteti kutubxonasiunder shelfmark Add. 3651. The textual differences are examined in four categories: the inclusion in the edited text of units deleted by the copyist; leaving lacunae or employing conjectural emendation in cases of difficult or uncertain readings; distinguishing corrections (tashih) from variant readings; and the transcription and interpretation of marginal annotations. The article also evaluates a quantitative classification based on a 106-item comparative table relating to the first chapter of al-Damanhuri's edition, together with the methodological limitations of such a classification. The analysis demonstrates the necessity of consulting all three editions comparatively, since the most recent critical edition does not invalidate every reading adopted by its predecessors. Finally, the article offers recommendations for Uzbek Maturidi studies concerning source citation practices, the preparation of a facsimile edition, and the compilation of a concordance table between the existing editions.*

Keywords: *Imam al-Maturidi, Kitab al-Tawhid, Cambridge university, critical edition, textual editing, textual criticism, codicology, erasure, conjectural emendation, variant reading.*

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Klassik kalom asariga tayangan aqidaviy va tarixiy xulosalarning ishonchliligi tadqiqotchi foydalanayotgan matnning muallif matniga qanchalik yaqinligiga bog‘liq. Abu Mansur Moturidiyning (vaf. 944-y.) «Kitob at-tavhid» asarini o‘rganishda bu masala alohida ahamiyatga ega. Asarning fanga ma’lum yagona to‘liq qo‘lyozmasi Buyuk Britaniyadagi Kembrij universiteti kutubxonasida 3651 raqami bilan saqlanadi[1].

Matnshunoslikda «codex unicus» (yagona guvoh) deb ataladigan bunday holat muharrir imkoniyatlarini cheklaydi. Saqlangan nusxalar asosida matn shajarasini tuzish va shubhali o‘rinlarni boshqa to‘liq nusxa bilan tekshirishning imkoni bo‘lmaydi. Shu sababli qo‘lyozmani sinchiklab o‘qish, uning ichki mantig‘i va hoshiyalaridagi dalillarni hisobga olish, zarur hollarda esa asoslangan konyektura taklif etish muhimdir. «Kitob at-tavhid»ning har bir tanqidiy nashri shu yagona nusxaning muayyan muharrir tomonidan talqin qilingan o‘qilishi (lectio) sifatida baholanishi lozim.

Maqolada asarning uch mustaqil tahqiqi qiyoslanadi. Birinchisi – misrlik olim Fathulloh Fathulloh Xulayf tayyorlagan nashr (Bayrut, 1970)[2]. Ikkinchisi – Bekir Topaloğlu va Muhammad Aruçi nashri (Anqara, 2003; keyinchalik Bayrut va Istanbulda qayta chop etilgan)[3]. Uchinchisi – Ahmad Sa’d Damanhuriy tahqiqi bo‘lib, u Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida tayyorlangan va Ammondagi «Maktabat al-G‘onim» nashriyotida bosilgan[4]. Osim Kayyoliy (2006) va Muhammad Azoziy nashrlari ham mavjud. Damanhuriy ularni Xulayf matniga, jumladan uning sarlavhalari, tushirib qoldirilgan o‘rinlari va o‘qish xatolariga ergashgan nashrlar sifatida baholaydi[5]. O‘zbek moturidiyshunosligida Damanhuriy tahqiqining mustaqil ilmiy nashr sifatidagi o‘rnini aniqlashtirish zarur. U ko‘pincha 2024-yilda Toshkentda chop etilgan o‘zbekcha ilmiy-izohli tarjima bilan bog‘liq holda tilga olinadi[6]. Arabcha tahqiq esa keng tadqiqot (dirosa) qismini o‘z ichiga olgan, 960 sahifali alohida nashrdir. Uni qiyosiy tahlilga jalb etish «Kitob at-tavhid»ning nashr tarixi va matniy muammolariga oid avvalgi qarashlarni to‘ldirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi uch tahqiqning metodologiyasini qiyoslash, matniy farqlarini tasniflash hamda Damanhuriy nashrining hissasi va cheklovlarini baholashdan iborat. Tahlilga nashrlarning arabcha matnlari, muqaddimalari va tanqidiy apparati asos qilib olingan. Qiyosiy matnshunoslik tahlili kodikologik kuzatuvlar va tanqidiy apparatdagi izohlarning kontent-tahlili bilan birga qo‘llanadi.

Uch tahqiqning nashr ma’lumotlari, tayanch manbasi, tuzilishi va tanqidiy apparatiga oid asosiy ko‘rsatkichlar 1-jadvalda jamlangan.

Uchala tahqiq bir qo‘lyozmaga tayansa-da, uning matni va hoshiyalaridan foydalanish usuli bilan farqlanadi. Tanqidiy apparatdagi tafovutlar ham muharrirlarning yagona nusxa sharoitida qanday tahririy yo‘l tutganini aks ettiradi. Damanhuriy tavsifiga ko‘ra, qo‘lyozma 206 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 21 satr mavjud. Muqovada asar va muallif nomi bilan birga egalik qaydlari ham berilgan; ulardan eng qadimgisi 1150-hijriy, ikkinchisi 1191-hijriy yilga tegishli. Bu qaydlar nusxa 1150-hijriy yildan kechiktirmay mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi, biroq uning aynan qachon ko‘chirilganini belgilamaydi. Nusxada boshqa qo‘lyozmalar bilan muqoyasa izlari ham bor: hoshiyalarda «خ» belgisi bilan variantlar, «صح» belgisi bilan tas’hihlar qayd etilgan. Damanhuriy matnda tushib qolgan joy yo‘qligini va hoshiya sharhlari kalom ilmidan xabardor shaxsga mansubligini ta’kidlaydi[7]. «Tabsira al-adilla»ga havolalar va «Abul Muin aytdi...» mazmunidagi qaydga tayanib, u ushbu qo‘lyozma Abu-l-Mu’in an-Nasafiy huzurida qiroat qilingan nusxadan kelib chiqqan bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi[8]. Bu ehtimol qo‘lyozmaning matniy tarixini o‘rganish uchun muhim, ammo alohida tekshiruvni talab etadi.

Xulayf asarning birinchi muharriri sifatida yagona nusxani o‘qishdagi qiyinchiliklarni ochiq bayon qilgan. U muqaddimada shunday yozadi: «Ayrim so‘zlarni o‘qish yoki to‘g‘rilash imkoni bo‘lmaganida, men ularning o‘rnini bo‘sh qoldirdim; tadqiqotchilar ushbu kamchilikni to‘ldirishda hissa qo‘shsalar, xursand bo‘lardim»[9]. Yana bir o‘rinda: «Biz islom falsafasi bilan shug‘ullanuvchi barcha olimlarning, ayniqsa kalom ilmi vakillarining mulohazalarini mamnuniyat bilan qabul qilamiz – toki «Kitob at-tavhid» qayta chop etilsa, yanada mukammal

[1] Cambridge University Library, Add. 3651. Qarang: Browne E.G. A Hand-list of the Muhammadan Manuscripts Preserved in the Library of the University of Cambridge. – Cambridge: Cambridge University Press, 1900.

[2] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-Mashriq, 1970. – 416 b.

[3] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Bakr Topaloğlu, Muhammad Aruçi. – Anqara: İSAM, 2003; qayta nashri: Bayrut: Dor Sodir; Istanbul: Maktabat al-Irshod, 2007.

[4] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – 960 b.

[5] O‘sha manba. – B. 102–103.

[6] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tarjimonlar: A. Alloqulov, I. Abdurahmonov, A. Yaxshilikov. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2024. – 672 b.

[7] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 143–148.

[8] O‘sha manba. – B. 150.

[9] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 58.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

1-jadval. «Kitob at-Tavhid»ning uch tanqidiy nashri: qiyosiy tavsif

Ko‘rsatkich	Xulayf (1970)	Topaloğlu–Aruçi (2003)	Damanhuriy (1445/2023)
Nashr joyi	Bayrut, «Dor al-Mashriq»	Anqara, İSAM; keyingi nashrlari Bayrut va Istanbulda	Ammon, «Maktabat al-G‘onim»; Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ko‘magida
Tayanch nusxa	Cambridge Add. 3651	Cambridge Add. 3651	Cambridge Add. 3651
Ikkinchi «guvoh»	Yo‘q	Xulayf nashri – «go‘yo ikkinchi qo‘lyozma nusxa» sifatida	Yo‘q; Xulayf va Topaloğlu o‘qishlari faqat qiyos uchun hoshiyada
Umumiy hajm	416 b.	Nashrga qarab turlicha sahifalash	960 b.
Tadqiqot qismi	Taxminan 70 b.	Taxminan 70 b.	Kengaytirilgan dirosa: hayot, asar tahlili, oldingi nashrlar tanqidi, nusxa tavsifi
Qo‘lyozma hoshiyalari	Asosan e’tibordan chetda	Ko‘chirilgan, lekin turlari farqlanmagan	To‘liq; uch turga ajratilgan
Matnni bo‘lish	Qavs ichidagi sarlavhalar	Sarlavhalar, qisman Xulayfdan farqli	6 bob, mustaqil masalalar, ketma-ket raqamlangan xatboshilar
Ramzlar tizimi	Cheklangan	ك، ه، م م، ك ه	ط، ط ه، خ، خ ه، ب، ب ه، «صح»، «خ»، +، –، [ ]

shaklda dunyoga kelsin», deya keyingi izlanishlarga yo‘l ochadi[10]. Topalo‘g‘li va Aruji o‘z ishlarini Xulayf bildirgan umidga javob sifatida ta’riflaydi[11]. Damanhuriy ham avvalgi nashrni muhokama qilishda shu murojaatga tayanadi[12]. Xulayf tahqiqining asosiy cheklovlaridan biri qo‘lyozma hoshiyalaridagi tas’hihlar, nusxa variantlari va sharhlardan yetarlicha foydalanilmaganidir. Yagona nusxali asarda bu materiallar alohida ahamiyatga ega: ular asosiy matnni tushunish bilan birga uning uzatilish tarixiga oid dalillarni ham saqlaydi.

Topalo‘g‘li va Aruji Xulayf nashrini qiyoslashning alohida manbasi sifatida tanlagan: «Ikkinchi nusxaga kelsak, biz «Kitob at-tavhid»ning birinchi nashrini go‘yo yana bir qo‘lyozma nusxa deb hisobladik». Muharrirlar bu yondashuvni «tahqiqchilar orasida misli ko‘rilmagan usul» deb ta’riflaydi[13]. Mazkur qaror ramzlarda ham aks etadi: «ك» Kembrij qo‘lyozmasini, «ه ك» uning hoshiyasini, «م» Xulayfning bosma matnini, «م ه» esa shu nashr hoshiyasini bildiradi[14].

Damanhuriy bu yondashuvga «Ikki nusxani teng deb bilish hech bir jihatdan to‘g‘ri emas», deya e’tiroz bildiradi[15]. E’tirozning asosiy nuqtasi qo‘lyozma va bosma nashrning manbaviy maqomini farqlash zaruratidir. Xulayf nashri mustaqil qo‘lyozma guvohi emas, balki 3651 raqamli nusxaning tahririy o‘qilishidir. Undan qiyos uchun foydalanish mumkin, ammo muharrir taklif qilgan yechimlarni mustaqil nusxa variantlari bilan tenglashtirish asosli emas. Aks holda tushuntiruvchi qo‘shimchalar ham qo‘lyozma daliliga teng maqom olishi mumkin. Shu bilan birga, Topaloğlu va Aruçi tahqiqi bir qator jihatlari bilan Xulayf nashrini to‘ldiradi. Unda qo‘lyozma hoshiyalari jalb etilgan, sarlavhalar izchilroq tuzilgan, oyatlar, hadislar, atamalar, shaxslar, firqalar, kitoblar va she’rlar bo‘yicha batafsil ko‘rsatkichlar berilgan. Damanhuriy ham ushbu yutuqlarni e’tirof etadi.[16]

Damanhuriy metodologiyasida tayanch qo‘lyozma birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Matn dastlab «ط» ramzi bilan belgilangan nusxadan o‘qiladi; Xulayf («خ») hamda Topalo‘g‘li va Aruji («ب») nashrlariga shundan keyin murojaat qilinadi. Hoshiya materiali uch guruhda beriladi: sharh va ta’liqlar «ط ه» ramzi bilan satr ostiga chiqariladi; tas’hihlar matnga olinib, izohda «صح» belgisi bilan ko‘rsatiladi; boshqa nusxa o‘qilishlari esa hoshiyada «خ» belgisi bilan ajratiladi.[17] Muharrirning matn tiliga munosabati quyidagi tamoyilda ifodalangan: «Asl nusxadagi kuchsizroq ehtimol boshqasidagi kuchliroq ehtimoldan ustun turadi». Shu asosda Moturidiyning noodatiy til qo‘llanishlari, jumladan aqlli mavjudotga nisbatan «ما», aqlsiz mavjudotga nisbatan «من» olmoshi ishlatilgan o‘rinlar arab tili doirasida izohlanishi mumkin bo‘lsa, saqlab qolinadi.[18] Bu yondashuv matnni tahririy me’yorga moslashtirishni cheklab, muallif tili va uslubini o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Damanhuriy keltirgan qiyosiy misollar matniy farqlarni to‘rt asosiy guruhda ko‘rib chiqishga imkon beradi. Quyida bu guruhlar qo‘lyozmaning tegishli varaqlariga havolalar bilan yoritiladi.

Kotib kashtining hisobga olinmasligi va matnga ortiqcha qo‘shilish

Qo‘lyozmada kotib xato yoki takror yozilgan birliklarni o‘chirish – kasht orqali bekor qilgan. Bu

[10] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 58.
[11] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topalo‘g‘li, Aruji. – Bayrut: Dor sodir, 2007. – B. 52.
[12] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 97.
[13] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Bakr Topalo‘g‘li, Muhammad Aruji. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 54.
[14] O‘sha manba. – B. 61 (ramzlar ro‘yxati).
[15] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 101.
[16] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 101–102.
[17] O‘sha manba. – B. 126–128.
[18] O‘sha manba. – B. 127.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

belgilar hisobga olinmasa, kotib chiqarib tashlagan so‘z yoki ibora bosma matnda saqlanib qoladi.

Birinchi misol, 42[b]-varag‘ida uchraydi: «وكان ذلك جملةً يحتمل الكون بالله وبالخلق، فكان العالم جملةً بعدد، وذلك الزنادقة في اثنين، وأصحاب الطبائع والنجوم أكثر من اثنين». Damanhuriy tahliliga ko‘ra, kotib «الكون بالله وبالخلق، فكان العالم جملة» qismini takror yozib, keyin takrorini o‘chirgan. Xulayf hamda Topaloğlu va Aruçi nashrlarida esa o‘chirilgan qism matnga kiritilgan[19].

Ikkinchi misol, 101[b]-varag‘iga tegishli. Kotib «ولو كان على حكم قول المنجمة» iborasidan oldin yozgan «وطعن» so‘zini o‘chirgan, biroq avvalgi ikki tahqiqda bu so‘z saqlangan.[20]

Uchinchi misolda, 113[a]-varag‘idagi «لما كان سببهما الجهل» iborasining o‘chirilgan takrori ikkala nashrga ham kirib qolgan[21].

Bunday holatlarni muharrirlarning umumiy ish usuliga doir qat’iy hukmga aylantirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Damanhuriy 145[b] kabi ayrim o‘rinlarda kasht avvalgi ikki tahqiqda ham to‘g‘ri hisobga olinganini qayd etadi[22]. Demak, har bir holat alohida tekshirilishi lozim; o‘chirish belgilarining ko‘rinishi va nusxa tasvirining sifati ham o‘qish natijasiga ta’sir qilishi mumkin.

qarashlari muhokama qilingan ushbu o‘rinda «أئمته» so‘zining hamzasi yengillashtirib yozilgani o‘qishni qiyinlashtirgan. Xulayf so‘z o‘rnini bo‘sh qoldirib, hoshiyada «asl nusxada o‘qib bo‘lmadi» deb qayd etgan. Topalo‘g‘li va Aruji nashrida bo‘shliq «أسباب» bilan to‘ldirilgan. Damanhuriy esa qo‘lyozma shakliga tayanib, «أئمته» o‘qilishini asoslaydi hamda hoshiyada muammoli o‘ringa ishora qiluvchi belgi borligini qayd etadi.[23]

Bu misolda bo‘shliq qoldirish o‘quvchiga matniy muammoni ochiq ko‘rsatadi, konyektura esa uni hal qilish uchun tahririy taklif beradi. Har ikki yo‘lning ilmiy qiymati qo‘llanish shartlariga bog‘liq. Konyektura asosiy matnga kiritilsa, uning taxminiy ekani tanqidiy apparatda aniq ko‘rsatilishi va paleografik yoki mazmuniy dalil bilan izohlanishi zarur.

3651 raqamli nusxa hoshiyalaridagi «صح» va «خ» belgilari turli vazifani bajaradi: birinchisi tuzatishni, ikkinchisi boshqa nusxadagi o‘qilishni bildiradi. Tas’hih tayanch matnni to‘g‘rilashga qaratilgan bo‘lsa, nusxa varianti muqobil o‘qilishni qayd etadi. Damanhuriy tahliliga ko‘ra, Xulayf ayrim variantlarni tuzatish sifatida matnga olgan; Topalo‘g‘li va Aruji

2-jadval. [75] varag‘idagi ikki o‘rinning uch nashrdagi o‘qilishi

Manba	Birinchi o‘rin	Ikkinchi o‘rin
Asl nusxa (ط)	«لها سلطان عليها على غير بمائها قلبته»; hoshiyada «خ» belgisi bilan: «بمائها غير مائها»	«على فنائها قلبته»; hoshiyada tas’hih: «على فناء ما قلبه»
Xulayf (خ)	«لها سلطان عليها بمائها قلبتها» – hoshiyadagi qaydni kotib qo‘shimchasi deb bilgan	«على فناء ما قلبه» – hoshiyadagi shaklni tanlagan
Topaloğlu (ب)	«لها سلطان عليها على غير بما به قلبتها» – hoshiyaga ishora qilgan, lekin uning turini ko‘rsatmagan	«على فناء ما قلبه»
Damanhuriy (ط)	Asl matndagi o‘qilish saqlangan, boshqa nusxa varianti hoshiyada «خ» sifatida ajratilgan	Tas’hih ekani aniq ko‘rsatilgan holda beriladi

O‘qilishi qiyin so‘zlar: lakuna va konyektura

So‘zni o‘qish qiyinlashgan o‘rinlarda uch xil yechim kuzatiladi: uning o‘rnini bo‘sh qoldirish, taxminiy o‘qilish – konyektura taklif etish yoki qo‘lyozmadagi shaklni qayta tekshirish orqali o‘qishni aniqlashtirish.

63[a]-varag‘idagi «وذلك من أئمته مضاهاة الدهرية» iborasi bunga misoldir. Muhammad ibn Shabib esa ba’zi o‘rinlarda farqni ko‘rsatgan, boshqa hollarda hoshiyadagi birlikni asosiy matndan tushib qolgan qism deb talqin qilgan.[24]

101[a]-varag‘idagi «فجمع ما أنزل عليه من القرآن هو [خ: من] الحجج» iborasi shu muammoni ko‘rsatadi. «من» ustidagi «خ» belgisi uning boshqa nusxa o‘qilishi ekaniga ishora qiladi. Xulayf «هو من» shaklini tanlab, qo‘shimchani asosiy matnga mansub deb izohlagan. Topalo‘g‘li va Aruji esa «من»ni tayanch nusxada tushib qolgan birlik deb hisoblagan. Damanhuriy har ikki nashrda «الحجج» so‘zi «أنجح» tarzida o‘qilganini ham qayd etadi[25].

[19] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 104–105. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 89; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Bakr Topaloğlu, Muhammad Aruçi. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 154–155 (Dor al-G‘arb nashri), 170–171 (Maktabat al-Irshod nashri).

[20] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-Tavhid / tahqiq va dirosa: Ahmad Sa’d ad-Damanhuriy; muqobala: Ixtiyor Baxtiyor al-Marg‘iloniy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 105.

[21] O‘sha manba. – B. 105–106.

[22] O‘sha manba. – B. 106. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 277; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Bakr Topaloğlu, Muhammad Aruçi. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 366.

[23] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d ad-Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. 107. Qarang: Xulayf. – B. 127; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topaloğlu, Aruçi. – Bayrut: Dor sodir, 2007. – B. 195.

[24] O‘sha manba. – B. 99, 108.

[25] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 108–109. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 195; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-Tavhid / tahqiq: Topaloğlu, Aruçi. – Istanbul: Maktabat al-irshod, 2007. – B. 283.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

75[a]-varag‘idagi ikki o‘rin tas’hih va nusxa variantini farqlash muammosini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Ularning nashrlardagi shakllari 2-jadvalda qiyoslangan.

Jadvaldagi farqlar hoshiyadagi qaydga berilgan maqom asosiy matnni tanlashga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qilishni baholashda so‘zning shakli bilan birga unga hamroh belgi va

3-jadval. I bobdagi farqlarning tipologik taqsimoti (muallif hisob-kitobi)

Farq turi	Soni	Nashrlar bo‘yicha taqsimoti
Matnga ortiqcha qo‘shish	**28**	Topaloğlu – 21; har ikkala nashrda – 5; Xulayf – 2
Matndan tushib qolish	**14**	Xulayf – 9; Topaloğlu – 4; har ikkalasida – 1
O‘qish xatosi	**22**	Xulayf – 17; Topaloğlu – 5
Matnga tasarruf va til o‘zgartirish	**16**	Asosan Topaloğlu nashrida
Asl nusxadan farqli o‘qilish tanlovi	**15**	Har ikkala nashrda

izohlar ham tekshirilishi kerak[26].

Hoshiya sharhlarining tushib qolishi yoki noto‘g‘ri o‘qilishi

Hoshiya sharhlari muallifning asosiy matniga kirmasa-da, murakkab iboralarni tushunish va asarning talqin tarixini o‘rganishda muhimdir. Ularni tushirib qoldirish yoki noto‘g‘ri o‘qish matnning mazmuniy izohiga ta’sir qiladi.

Bilim manbalari bahsidagi «وبأصل ما حُمد هو به» iborasiga quyidagi hoshiya sharhi ilova qilingan: «ya’ni nutq; zero u xabar orqali hosil bo‘ladi. Alloh taolo: «U insonga bayonni o‘rgatdi» degan (Rahmon, 4). Bayon tufayli inson hayvondan ajraldi...». Sharh oxiridagi noaniq so‘z Xulayf nashrida tushirib qoldirilgan, Topaloğlu va Aruçi tahqiqida «المثل» tarzida o‘qilgan. Damanhuriy «المَيْل» variantini taklif etib, ikki ehtimolni ham izohlaydi.[27]

Mutavotir xabar haqidagi bahsda «وهكذا القول فيما طريقه الاجتهاد» iborasiga berilgan hoshiya Xulayf nashrida keltirilmagan. Topalo‘g‘li va Aruji uni bergan, biroq Damanhuriy o‘qilishi bilan qiyoslaganda ikki farq kuzatiladi: «وبَيَّن أن الاجتماع...» o‘rnida «وذلك أن الاجتماع...» o‘rnida esa «حتى يتبين» berilgan.[28]

15[b]-varag‘idagi «الاجتماع» so‘ziga yozilgan mufassal kalomiy sharh ham Xulayf nashrida yo‘q. Topaloğlu va Aruçi sharhni keltirgan bo‘lsa-da, Damanhuriy ularning «الاعتدال»ni «الأضداد» deb o‘qiganini qayd etadi. Shuningdek, «مقابلة» oldidagi alif-lomning o‘chirilgani hisobga olinmagani iborani tiklash uchun qo‘shimcha kiritishga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi.[29]

O‘qilishlarni baholashda nashr sanasining o‘rni

Keyingi nashr har bir o‘rinda avvalgisidan aniqroq o‘qilish beradi, deb bo‘lmaydi. 124[a]-varag‘idagi «وفعلهما واحد يصير به شركاء فيه» iborasi bunga misoldir. Kotib bu o‘ringa matnning murakkabligini bildiruvchi belgi qo‘ygan. Topalo‘g‘li va Aruji «يصيران به شريكين في», Xulayf esa «يصير به شركاء فيها» shaklini bergan. Damanhuriy ikki yechimni qiyoslab, Xulayfning o‘qilishi qo‘lyozmaga yaqinroq ekanini ta’kidlaydi[30].

Shunday qilib, nashrlarning ilmiy qiymatini faqat ularning chop etilish ketma-ketligi bilan belgilash mumkin emas. Har bir o‘qilish o‘z dalili asosida baholanishi kerak. «Kitob at-tavhid» ustida ishlayotgan tadqiqotchi uchun uchala tahqiqni birgalikda qo‘llash zarurati shundan kelib chiqadi. Damanhuriy birinchi bob – «Bilim manbalari» bo‘yicha o‘z o‘qilishlarini Xulayf hamda Topalo‘g‘li va Aruji nashrlari bilan qiyoslaydigan jadval tuzgan. Muharrir unda «yuzdan ortiq farq» qayd etilganini bildiradi[31]. Maqola muallifi hisobida jadval 106 banddan iborat. Uning «Mulohazalar» ustuni asosida tuzilgan dastlabki tasnif 3-jadvalda beriladi.

3-jadvaldagi besh guruh sonlari yig‘indisi 95 ni tashkil etadi; u 106 bandning barchasini qamrab oladigan yakuniy taqsimot sifatida talqin qilinmasligi kerak. Ayrim bandlarning bir necha guruhga mansubligi ham bu tafovutni o‘z-o‘zicha tushuntirmaydi: tasnifga kiritilmagan bandlar va hisoblash mezonlari alohida aniqlashtirilishi zarur. Mavjud sonlar Xulayf nashrida o‘qish xatolari va tushib qolishlar, Topalo‘g‘li va Aruji tahqiqida esa

[26] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 110–111.

[27] O‘sha manba. – B. 112–113. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 8; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topalo‘g‘li va Aruji. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 70.

[28] O‘sha manba. – B. 113. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 9; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: opalo‘g‘li va Aruji. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 72.

[29] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 113–114.

[30] O‘sha manba. – B. 107–108. Qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – B. 238; Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topalo‘g‘li va Aruji. – Anqara: İSAM, 2003 – B. 319–320.

[31] O‘sha manba. – B. 119.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

qo‘shimchalar ko‘proq qayd etilganini ko‘rsatadi. Biroq bu kuzatuvlarni 106 bandli jadvalning to‘liq taqsimotiga yoki asarning barcha boblariga umumlashtirish uchun hisob-kitobni batafsil tekshirish lozim. Damanhuriy tahqiqining asosiy yutug‘i tayanch qo‘lyozma, avvalgi nashrlar va hoshiya materialining maqomini izchil farqlashga intilishidir. Kotib o‘chirgan birliklar tekshirilishi ortiqcha takrorlarni chiqarish imkonini bergan. Hoshiya sharhlari, tas’hihlar va nusxa variantlarining ajratilishi esa tanqidiy apparatni aniqlashtirgan. Avvalgi ikki nashr o‘qilishlarining keltirilishi qiyoslashni yengillashtiradi. Muallif tilini imkon qadar saqlash tamoyili, batafsil kodikologik tavsif va tanlangan varaqlar suratlari ham nashrning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Ushbu yutuqlar bilan birga, tahqiqdan foydalanishda bir necha metodologik cheklovni hisobga olish zarur. Damanhuriy asarni olti bob va alohida masalalarga ajratgan, xatboshilarni izchil raqamlagan, ayrim fasllarning qo‘lyozmadagi o‘rnini o‘zgartirgan. Bu foydalanishni yengillashtiradi, biroq yagona nusxada materialning joylashuvi ham matniy dalildir. Abul Yusr Bazdaviyning «asar tartibida qandaydir qiyinchilik bor» degan mulohazasini baholashda ham qo‘lyozmadagi tartib muhim[32]. Muharrir o‘zgartirishlarni ochiq ko‘rsatib, tegishli o‘rinlarni uch nashr sahifalari bilan bog‘lagan[33]. Keyingi nashrlarda qo‘lyozma tartibi va tahririy tartibni to‘liq solishtirish imkonini beruvchi konkordans jadvali tuzilsa, bu masalani tekshirish osonlashadi. Qolaversa, batafsil tanqidiy apparat qo‘lyozmaning muallif matnigacha bo‘lgan uzatilish tarixidagi barcha noaniqliklarni bartaraf eta olmaydi. Nusxaning aniq ko‘chirilgan sanasi ham faqat egalik qaydlari bilan belgilanmaydi. Har uch tahqiqdagi matn shu bois Moturidiy avtografi sifatida emas, saqlangan yagona nusxa asosidagi ilmiy rekonstruksiya sifatida qo‘llanishi lozim.

Nashrda qo‘lyozmaning to‘liq faksimilesi o‘rniga tanlangan varaqlar suratlari berilgan. To‘liq raqamli faksimileni tanqidiy matn bilan bog‘lab taqdim etish o‘quvchiga tahririy yechimlarni mustaqil tekshirish imkonini kengaytiradi. Damanhuriy tahqiqidan foydalanilgan ilmiy ishlarda uning mustaqil arabcha nashri aniq ko‘rsatilishi kerak. Bu tahqiqdagi matniy yechimlarni o‘zbekcha tarjimadan farqlash va keltirilgan dalillarni tekshirish uchun zarur.

Qiyosiy tahlil «Kitob at-tavhid»ning nashr tarixini yoritishda Xulayf (Bayrut, 1970), Topalo‘g‘li va Aruji (Anqara, 2003) hamda Damanhuriy (Ammon, 2023) tahqiqlarini birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Damanhuriyning Kayyoliy va Azoziy nashrlarini Xulayf matniga bog‘liq deb baholashi ham mustaqil tahqiq bilan avvalgi nashrga asoslangan qayta nashrni farqlash muhimligini anglatadi. Shu bois asarning faqat ikki tanqidiy nashrini tilga olish uning nashr tarixini to‘liq aks ettirmaydi. Uch tahqiq o‘rtasidagi tafovutlar alohida so‘zlarning o‘qilishi bilan cheklanmay, muharrirlarning matnni nashrga tayyorlash tamoyillarida ham namoyon bo‘ladi. Xulayf o‘qilishi aniqlanmagan o‘rinlarda bo‘shliq qoldirgan bo‘lsa, Topalo‘g‘li va Aruji birinchi bosma nashrdan qo‘shimcha qiyos manbasi sifatida foydalangan. Damanhuriy esa tayanch qo‘lyozmaga ustuvorlik berib, hoshiya materialini vazifasiga ko‘ra ajratgan. Bu yondashuvlarni baholashda qo‘lyozma dalili bilan muharrir taklif etgan o‘qilishni farqlash zarur: avvalgi bosma nashr qiyoslash uchun qimmatli bo‘lsa-da, ayni qo‘lyozmadan kelib chiqqani sababli mustaqil qo‘lyozma guvohi maqomiga ega bo‘lmaydi.

Tahlil qilingan matniy farqlar kotib kashtini hisobga olish, o‘qilishi qiyin birliklar o‘rnida lakuna yoki konyektura qo‘llash, tas’hihni nusxa variantidan ajratish hamda hoshiya sharhlarini keltirish va o‘qish bilan bog‘liq. Ushbu tasnif yagona nusxada saqlangan boshqa klassik asarlarni o‘rganishda ham qo‘llanishi mumkin. I bobga oid dastlabki miqdoriy tahlil nashrlarning tahririy xususiyatlariga doir ayrim tendensiyalarni ko‘rsatsa-da, tasnifdagi sonlar yig‘indisining 106 bandga mos kelmasligi hisoblash mezonlarini aniqlashtirishni talab etadi. Shu sababli miqdoriy xulosalarni qat’iylashtirish uchun barcha bandlarni yagona mezon asosida qayta tekshirish lozim.

Nashrlarning ketma-ket yaratilgani har bir keyingi tahqiq avvalgisining barcha yechimlarini bekor qilishini anglatmaydi. Jumladan, 124[a]-varag‘idagi o‘qilishni baholashda Damanhuriy Xulayf taklifini qo‘lyozmaga yaqinroq deb topadi. Bu holat har bir matniy yechimni nashr sanasiga qarab emas, uni asoslovchi dalillar orqali baholash va uchala tahqiqdan o‘zaro qiyoslab foydalanish zarurligini tasdiqlaydi. 3651 nusxa hoshiyalaridagi «Tabsira al-adilla»ga havolalar hamda Abul Muin Nasafiy bilan bog‘liq qaydlar esa qo‘lyozmaning matniy tarixini o‘rganish uchun muhim yo‘nalish ochadi. Mazkur qaydlar nusxaning muayyan matniy an’anaga mansubligini hali isbotlamasa-da, mustaqil tadqiqot uchun asos bo‘la oladi.

[32] Abul Yusr Pazdaviy. Usul ad-din. Uning «Kitob at-tavhid» tartibi haqidagi mashhur mulohazasi va unga berilgan baho uchun qarang: Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 95–96.

[33] Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – B. 135–136.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – 416 b.
2. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topalo‘g‘li va Aruji. – Anqara: İSAM, 2003; qayta nashri: Bayrut: Dor sodir; Istanbul: Maktabat al-irshod, 2007.
3. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – 960 b.
4. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tarjimonlar: A. Alloqulov, I. Abdurahmonov, A. Yaxshilikov. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2024. – 672 b.
5. Cambridge University Library. Add. 3651 (Kitob at-tavhid qo‘lyozmasi, 206 lavha).
6. Edward Granville Browne. A Hand-list of the Muhammadan Manuscripts Preserved in the Library of the University of Cambridge. – Cambridge: Cambridge University Press, 1900.
7. Manfred Götz. Mâtürîdî und sein Kitâb Ta’vîlât al-Qur’ân // Der Islam. – 1965. – Band 41. – S. 27–70.
8. Wilferd Madelung. The Spread of Māturīdism and the Turks // Actas do IV Congresso de Estudos Árabes e Islâmicos. – Leiden: Brill, 1971. – P. 109–168.
9. Uilrich Rudolph. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand / transl. by R. Adem. – Leiden–Boston: Brill, 2015. – 396 p.
10. Abul Yusr Muhammad Pazdaviy. Usul ad-din / tahqiq: H.P. Linss. – Qohira: Dor Ihyo al-kutub al-arabiyya, 1963.
11. Saidmuxtor Oqilov. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. Monografiya. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020. – 320 b.
12. Abdussalom Muhammad Horun. Tahqiq an-nusus va nashruho. – Qohira: Maktabat as-Sunna, 1977. – 152 b.

REFERENCES

1. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Fathulloh Fathulloh Xulayf. – Bayrut: Dor al-mashriq, 1970. – 416 b.
2. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Topalo‘g‘li va Aruji. – Anqara: İSAM, 2003; qayta nashri: Bayrut: Dor sodir; Istanbul: Maktabat al-irshod, 2007.
3. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tahqiq: Ahmad Sa’d Damanhuriy. – Ammon: Maktabat al-G‘onim, 2023. – 960 b.
4. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid / tarjimonlar: A. Alloqulov, I. Abdurahmonov, A. Yaxshilikov. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2024. – 672 b.
5. Cambridge University Library. Add. 3651 (Kitob at-tavhid qo‘lyozmasi, 206 lavha).
6. Edward Granville Browne. A Hand-list of the Muhammadan Manuscripts Preserved in the Library of the University of Cambridge. – Cambridge: Cambridge University Press, 1900.
7. Manfred Götz. Mâtürîdî und sein Kitâb Ta’vîlât al-Qur’ân // Der Islam. – 1965. – Band 41. – S. 27–70.
8. Wilferd Madelung. The Spread of Māturīdism and the Turks // Actas do IV Congresso de Estudos Árabes e Islâmicos. – Leiden: Brill, 1971. – P. 109–168.
9. Uilrich Rudolph. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand / transl. by R. Adem. – Leiden–Boston: Brill, 2015. – 396 p.
10. Abul Yusr Muhammad Pazdaviy. Usul ad-din / tahqiq: H.P. Linss. – Qohira: Dor Ihyo al-kutub al-arabiyya, 1963.
11. Saidmuxtor Oqilov. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. Monografiya. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020. – 320 b.
12. Abdussalom Muhammad Horun. Tahqiq an-nusus va nashruho. – Qohira: Maktabat as-Sunna, 1977. – 152 b.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.